

Harbiy-texnik bilimlarni puxta egallash yo'lida

Yosh avlod qalbida Vatanni sevish va ko'z qorachig'idek asrab-avaylashlari ularda vatanparvarlik tuyg'usini, mudofaa hissini oshirishdan boshlanadi. Buning uchun ularda siyosiy sergaklik, axloqiy fazilatlar, psixologik sifatlarni shakllantirish, harbiy-texnik bilimlarni egallash, talabalarning jismoniy takomillashuvi jarayonini rivojlantirish talab etiladi. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari institutida bunday yo'sindagi tizimli ishlar amalga oshirib borilmoqda.

Joriy yilning 30 oktyabr kuni harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmasida tahsil olayotgan "Gidromelioratsiya va gidrotexnika inshootlari" fakulteti talabalari bilan Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurtida texnik tayyorgarlik bo'yicha amaliy mashg'ulotlar tashkil etildi. Mashg'ulotlar Chirchiq oliy tank qo'mondonlik muhandislik bilim yurti hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy kafedrasining ko'p yillik hayotiy va xizmat tajribasiga ega bo'lgan professor-o'qituvchilari tomonidan olib borildi.

Mashg'ulotlar davomida talabalar jangovar mashinalar va avtomobil texnikalarining jangovar va taktik - texnik tavsiflari haqida ma'lumot berilib, ularning jangovar imkoniyatlari bilan tanishtirildi. Shuningdek, talabalarga jangovar va avtomobil texnikalarining kuch qurilmasi agregatlarining vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili ularning jangovar mashina va avtomobil texnikalaridagi joylashgan o'rni, texnik xizmat ko'rsatish va ekspluatatsiya qilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nosozliklarni bartaraf qilish, ushbu mashinalarning dvigatellarini o't oldirish, dvigatelga xizmat qiluvchi agregatlardagi yoqilg'i moylash mahsulotlari va sovitish suyuqliklarining sathini tekshirish tartibi tushuntirildi.



Mashg'ulot rahbarlari talabalarga T-72 tankining jangovar, taktik-texnik tavsifini va texnik xizmat ko'rsatish tartibini tushuntirishmoqda



Mashg'ulot rahbarlari talabalarga PJM (piyodalar jangovar mashinasi)ning jangovar, taktik-texnik tavsifini va texnik xizmat ko'rsatish tartibini tushuntirishmoqda



Mashg'ulot rahbarlari talabalarga T-72 tankining kuch qurilmasi hamda nazorat o'lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishlash tamoyili va texnik xizmat ko'rsatish tartibini tushuntirishmoqda

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti harbiy kafedrasida boshlig'i podpolkovnik R. Minlishev axboroti

Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov